

**MUHAMMADNIYOZ NISHOTIYNING “HUSN-U DIL” DOSTONIDA
BADIY OBRAZLAR**

Mehrinoz MUZAFFAROVA,

*Nizomiy nomidagi TD Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika
universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-bosqich talabasi*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878443>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhammadniyoz Nishotiyning “Husn-u Dil” va Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi o‘xshashliklar, dostonidagi qahramonlarning nomlari va ularning voqealar bilan hamohangligi, chin ishqqa yetishish yo‘lida oshiq yengib o‘tishi kerak bo‘lgan sinovlar va ularning tasavvufiy ma‘nosi haqida fikr va mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Muhammadniyoz Nishotiy, “Husn-u Dil”, dostonidagi timsollar, “Hamsa” dostonlari, komil inson, ramzlar, tasavvuf, uyg‘unlik, insoniy fazilatlar.

Sharq mumtoz adabiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan taniqli o‘zbek shoiri, Muhammadniyoz Nishotiydir. U liro-epik she‘riyat rivojlanishiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan. Nishotiy 1701-yilda Xorazmda tug‘ilgan. U Xiva madrasalarida tahsil olgan. Xorazm xonligidagi siyosiy beqarorlik tufayli Buxoroga ko‘chib o‘tgan va u yerda g‘ariblikda yashagan Ba‘zi manbalarda U madrasani tugatgach, bir muddat qozi va a‘lam lavozimda ishlaganlari ham aytiladi. Nishotiy o‘zining lirik she‘rlari va dostonlari bilan mashhur. Ijodiy merosidan “Husn-u Dil”, dostoni va “qushlar munozarasi” manzumi bizgacha yetib kelgan. She‘rlari “G‘azaliyot va muxammasoti Nishotiy”, “Bayozi mutafarriqa”, “Bayozi majmuai ash‘or” kabi manbalarda jamlangan.

Muhammadniyoz Nishotiyning eng mashhur asari bu “Husn -u Dil” dostonidir. Bu doston 1778-yilda shoir Buxorodaligida yozilgan. Doston 62 bob, 15584 misradan iborat. Nishotiy dostonida sevgi, muhabbat kabi insonning pok tuyg‘ularini, oliyjanob insoniy fazilatlarini, hayot va marifatni ulug‘laydi. Doston Sharq adabiyoti orasida mashhur bo‘lgan syujet asosida, nazmda yozilgan. Shoir asarni an‘anaviy kirish (1-5-boblar) da tabiat, yer, suv, osmon, quyosh haqida fikrlar bilan boshlagan. Undan so‘ng asarning kirish qismida shoir tug‘ilib o‘sgan vatani Xorazm ekani haqida kuylaydi:

Bor edi Xorazm diyori yerim,
Ondin edi yaxshi-yomon gavharim.
Dema oni bor edi jannat misol,
Yetmaguvsi vasfiga vahm-u xayol.

“TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

7-bobda asarning yozilish sabablari, 8-bobda esa so‘z san’ati va uning qudrati haqida mulohaza yuritiladi. 9- bobda Nishotiy o‘zidan avval yashagan to‘rt buyuk shoir: Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy “Xamsa”sini o‘qib, ulardan ta’sirlanganini va “Husn -u Dil”ni aynan shoirlar xamsalarining birinchi dostoniga javob tariqasida yozganini aytib o‘tadi. Nishotiy dostonini yozishda ko‘proq Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidan ilhomlanib yozgan deyishimiz mumkin. Chunki har ikki dostonning ham syujeti bir hil, faqat undagi nomlar va ba’zi voqealar o‘zgargan xolos.

“Husn-u Dil”asarning kitobxonni o‘ziga tortadigan fazilatlaridan eng birinchisi undagi obrazlardir. Shoir obrazlarga qunt bilan ishlov berib, ularni o‘zining maqsadi yo‘lida mahorat bilan ishlata olgan. Dostonda 100 dan ortiq obrazlar bor. Ularning barchasi majoziy - ramziy shakllarda qo‘llangan. Nishotiy faqat shaxs nomlaridagina emas, balki joy nomlari, narsa - predmet va hayvon nomlaridan ham majoziy ma’noda foydalangan.

Quyidagi sistema orqali buni ko‘rishingiz mumkin:

Joy ma’nosida tasvirlangan obrazlar	Shaxs ma’nosida tasvirlangan obrazlar	Narsa, predmet va hayvon ma’nosida tasvirlangan obrazlar
Badan qal’asi	Fuod	Doniyol asari
Talab vodiysi	Nazar	Obi hayot
Ofiyat shahri	Nomus	Hayo va adab
Shuxrat shahri	Faxr	Siyam va zar
Ibodatxona	Zarq	Ashki riyo
Ormon	Nazar	Vahshiy hayvonlar
Hayrat shahri	Nohid	Daryo
Hidoyat shahri	Himmat	Gavhari donish
Sagsor qal’asi	Raqib	Devlar
Habib shahri	Qomat	Kongil ko‘zgusi
Ruxsor gulshani	Husn	Muhr va guvohlar

Doston xuddi xalq og‘zaki ijodi va “Farhod va Shirin”dagidek farzandsizlik motivi bilan boshlanadi. Aqlshoh va Nafsbonu ancha yillar farzandsizlikdan qiynalishadi va bir kun ular o‘g‘il farzandli bo‘lishadi. uning ismini Fuod qo‘yishadi. Aqlshoh o‘g‘li tug‘ilganida unga Badan qal’asini qurib beradi. Nafsbonu esa unga Iskandarning obi hayot qidirishi haqidagi Doniyolning asarini sovg‘a qiladi. Asarda Obi hayot haqida “Kimki uning qatrasidan ichsa, o‘lgan bo‘lsa tiriladi, u buloqning suvi jon suvidek pok bo‘lib, ajal zahri uchun davo” deb yozilgan

edi. Bu soʻzlar Fuod botinidagi pinhoniylar sirlarni ochib yuboradi va u ishqqa muhtal boʻladi. Fuod endi oʻz dardiga davo topmaguncha toʻxtamaydi. Kitobda Obi hayot qayerda joylashganligi haqida yozilmagandi . Ammo unga eltuvchi ishora bor edi :Obi hayot- qaro zulmat aro qaynab chiquvchi chashma”. Bu shunchaki qorongʻulik emas, balki tasavvufiy maʼnoda , chin oshiq chekishi kerak boʻlgan mashaqqatli mehnat, qaygʻu va alam degani. Dil buni bilgach qaygʻu va alamning voqifi boʻlib qoladi. Dilning Nazar degan doʻsti boʻladi.U shahzodaning holini bilgach , unga obi hayotni topishga vada beradi.

Bu yerda obraz sifatida tasvirlanayotgan Nazar- inson nazari , ruhi ,hissining badiiy ifodasi. Inson aynan Nazari orqali hamma narsani biladi va oʻrganadi . shuning uchun ham shoir aynan Dilning yaqin doʻsti sifatida Nazarni olgandir.

Nazar yoʻlga otlanadi va birinchi boʻlib Ofiyat mamlakatining salomatlik shahriga boradi va Nomusshoh bilan uchrashadi. Nazar undan Obi hayot haqida soʻraganda shoh unga bu obihayot emas balki obihayo ekanini aytadi.

Demak bundan kelib chiqadiki, haqiqiy komil inson birinchi navbatda ofiyatli- hayoli, odobli, oʻzini malomatlardan salomat tutuvchi inson boʻlishi kerak.

Nazar undan soʻng Shuhrat shahri va u yerning faxrshohi huzurida boladi . undan ham obihayot haqida soʻraydi . Faxrshoh esa : “sen soʻrayotgan narsa bu siym va zardur”- deydi. “Kimdagi boylik yoʻq boʻlsa , uning joni ham yoʻq ,agar insonda siym u zar boʻlsa , barcha maqsadlari ushaladi” -deb nasihat qiladi . Nazar shohning gaplarini bekor biladi va yoʻlini davom etadi. Haqiqiy oshiq uchun siym-u zarlarning toshdan farqi yoʻq . Haqiqiy oshiq oʻz maqsadi yoʻlida butun dunyo lazzatlaridan voz kechishi kerak.

Nazarning uchinchi manzili purshukuh bir togʻdagi xristianlar ibodatxonasi edi. Uning ichida shayx ZARQ bilan uchrashadi. Nishotiy shayxni shunday tasvirlaydi: Undan boʻyi riyo anqib turardi, yaʼni uning tilidan sunnat tushmasada, hamma ishi nomaqulchilik edi. Ertayu kech ibodatxonada boʻlsada ,oʻzi shaytonlarga rahbar na ilmi ,na amali bor edi.Nazar undan obihayot haqida soʻraganda, u obihayot emas obiriyo deb aytadi . Ammo ,aksincha, oshiq riyo- ikkiyuzlamachilikdan yiroq boʻlmogʻi,oʻzidagi riyo bilan bogʻliq qusurlardan qutulishi kerak . Oʻzi ZARQ soʻzining maʼnosi ham ham hiyla ,nayrangku den Nazar tez u yerdan ketadi .

Riyo chin oshiqni haq yoʻldan toydiradi . komil insonning qalbi riyaodan mutloq forigʻ bolishi kerak.Nazarning yoʻlidan ulkan ormon chiqdi . Oʻrmonning vaxshatini tariflashga til ojiz . u yerda ilon va chayonlar in qurgan, kavaklari gʻordek, pashshasidan fil ,tulkisidan sher qoʻrqardi. Bu oʻrmon majoziy maʼnoda insonni bu dunyoga bogʻlab turuvchi , ruhini haqdan uzib turuvchi yomonliklar timsoli desak boʻladi , albatta. Nazarni bu ormondan yoʻlchi yulduz qutqaradi . va unga Hidoyat

shahriga eltuvchi yo‘lni ko‘rsatadi . Hidoyat shahrininh shohi Himmatshoh edi. Nazar Himmatshohdan obihayot haqida so‘raganda unga buloqqa bo‘lgan yo‘lni korsatib , unga yo‘lida uchrashi kerak bo‘lgan sinovlar – Sagsor qal’asi va raqib devdan xabar berdi . u devdan o‘tish uchun Gavhari donishni – Ogohlik gavharini berdi.

Bizni qalbimiz komillikga erishish yo‘lida bu dunyo vasvasalariga tushib to‘g‘ri yo‘ldan adashsak bizga yordamga faqat yo‘lchi yulduz keladi va u bizni hidoyat sari yo‘naltiradi. Komilikka erishishga eng katta yordamni hidoyat beradi .Raqib dev esa bu bizning nafsimizdir . biz Nafsimizni faqat Ogohlik gavhari ila yengishimiz mumkin . solik inson har doim nafsiga ogoh bo‘lishi, uni hushyorlik ila nazorat qilishi lozim.Dil uyg‘oqligi va qalb bedorligigina nafsni muntazam nazorat qilish imkonini beradi. Agar inson ozgina bu yo‘llda chalg‘isa, nafs uni ming balolarga duchor qilishi mumkin. Bu so‘zlarga dalil sifatida Nishotiy Raqibning qasrini ko‘rgan nazar og‘zi ochilib ichidan gavhar tushib ketgani va devlar qo‘liga bandi bo‘lgan sarguzashtini ramziy ma’noda tasvirlagan. Agar biz “Farhod va Shirin” dostonini eslaydigan bo‘lsak , unda ham Farhod Suqrot oldiga borguncha ikki cheti qiralli toshlardan iborat tor so‘qmoqdan yurib, o‘n bir ming qadam bosishi kerak edi ,agar ozgina chalg‘isa ,halokatga yuz tutishi mumkin edi.Bu yerda qahramonlarning ruhiyatidagi o‘zgarishlar, ularning iroda kuchlari sinovdan o‘tkazilgan.

Nazar qal’adan sog‘ salomat chiqadi. Endi u avvalgidek emas , uning marifati oshdi, aqli ravshanlashib ruhiyati boyidi. Ammo bu hali yetarli emas . Nazarga endi Qomatning yordami kerak . Nazar Habib shahrining shohi Qomat ko‘magida Ruxsor gulshaniga yo‘l oldi . Boshidan tahlil qiladigan bo‘lsak ,Nazar Qomatga yetishishdan oldin davlat va boylikdan, riyo va nomusdan, ikkilanishlardan nafs vasvasalaridan halos bo‘ldi. Ko‘ngil ko‘zgusi dunyo changlaridan tozalandi . Oshiqning ilmi irfon sirlaridan xabardorligi o‘z -o‘zini anglash kuchaydi. Oradagi pardalar birin-ketin ko‘tarildi. U Ruxsor gulshanida dastlab Jilva, Gisu, Xol va so‘ngida G’amza bilan ko‘rishadi. Ularning barchasidan keyin malika Husn bilan uchrashadi va suhbatlashadi. Malika Nazarga obihayotdan muhra va guvohlikka ikki kanizi g’amza va xayolni beradi. Nazar Fuodning oldiga borgach, bor gapni aytadi va xayolga Husnning rasmi chizishni G’amzaga esa Diydor shahri tarifini aytishni buyuradi. Ikkisi Fuodni Husn tomon yetaklaydi. Fuod shu paytgacha ishqdan azob chekayotgan edi ,Nazarning uchib Badan qal’asiga qaytishi esa, oshiq ruhining mushohada bilan qalbga qaytishini bildiradi. Fuod -dil , qalb egasi . Qalb(Dil) ruh va hissiyot (Nazar)orqali hamma narsani biladi . Ishq doimo qalbda qalb esa badanda yashaydi. Dil asarda Nazar vositasi orqali olam sirlarini yaxshi va yomonni,Haqni bilib oldi. Nishotiy obrazlarga nom qo‘yishda boshqa asarlarga uchramaydigan yo‘lni tutgan , ya’ni u qahramonlarini nomlashda insonga tegishli bo‘lgan fazilatlar ,

hususiyat va odatlardan foydalangan . Eng asosiysi har bir obrazning nomlari voqealar rivoji bilan uyg'unlikni kasb etadi .Bundan tashqari shoir makon nomlari va shaxs nomlarini ham bir biriga moslagani bu uning mahorati qay darajada ekanligini aytib turadi. Misol uchun: Dilning Badan qal'asida yashashi,Husnning diydor shahrida yashashi, Ofiyat shahrining shohi Nomus va boshqalar . Nishotiy “Husn-u Dil” dostonida qo'llangan obrazlarning mukammalligiva takrorlanmasligi va ular anglatgan tasavvufiy ma'nolar uning yuksak mahoratli ekanini isbotlaydi .Bu esa dostonni qiymatini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda Nishotiy xilma-xil majoziy obrazlar, tasvirlar orqali insoniy fazilatlarni ulug'lashga intiladi, adolatparvarlik, tinchlik, mardlik, sadoqat g'oyalarini targ'ib etadi. Dostonda Fuod(Dil) obrazi ishqqa muhtalo oshiq. Ammobuishqhaqiqiy bo'lmay, Ollohga bo'lgan ishqdir. Asardagi “Husn” obrazi ham har tomonlama Dilga munosib yor, ahdiga vafoli. Asarda vaslga yetishish uchun mehnat, mashaqqat chekish g'oyasi ilgari suriladi. Navoiy asarlarida bo'lgani kabi, Nishotiy ham qiyinchilik, zahmat chekmay, yorning visoliga, ya'ni Olloh vasliga yetib bo'lmasligini asardagi majoziy timsollarorqaliyoritib beradi. Dostonda Aqlshoh va Ishqshoh o'rtasidagi jang Ishqning g'alabasi bilan yakun topishi ham aql bor joyda ishq to'liq o'zligini nomoyon qila olmasligiga ishoradir. Asarni tasavvufiy tomondan o'rganish mazmunni to'laroq anglashga yordamberadi. Dil nazari dunyoviy hislardan tozalanib, yo'lida og'ishmay, dunyo noz-ne'matlaridan voz kechaolgani, sinovlarga sabr qilishi sabab obi-hayot suviga yetishgani uning komillikka yetishkanidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nishotiy. Husn va Dil.Lirika.-T.1967.
2. Fayzullayeva, O. (2024). THE ISSUE OF FORM AND CONTENT IN LYRIC CYCLES. Евразийский журнал технологий и инноваций,
3. Abdullayev V. XVII-XVIII asrlarda Xorazmda o'zbek adabiyoti. Dok.diss... Samarqand, 1958.
4. Xolid Rasul. Nishotiy va uning “Husn-u Dil” dostoni//O'zbek adabiyoti masalalari.-T.:1962, 4-son
5. Shukurova G. Volume 17 No.1(2024):SCIENCE SHINE international scientific journal.
6. O'RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. “Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an'anasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiali. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf.
7. Omanova, M. (2024). Nizomiy Ganjaviy merosining alisher navoiy ijodiga ta'siri. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(20), 24-27.
8. Kadirova M.N. Technological solutions and innovative digital tools. Netherlands. <https://staff.tiame.uz/storage/users/829/articles/nyOCfZLWmrPLJiMMJmugxLcoqGUmIvB9cP2PPxaq.pdf>